

Ўз вақтида огоҳлантириш, қутқариш ва ёрдам бериш асосий вазифамиздир!



2024 йил
30 май
№ 22 (963)



Ўзбекистон Республикаси Фавқулодда вазиятлар вазирлиги нашри

Газета 2004 йил 7 майдан чиқа бошлаган

ТУНГГИ ЎРГАНИШ



Фавқулодда вазиятлар вазирлигининг биринчи ўринбосари – Штаб бошлиғи полковник С.Зупаров томонидан Тошкент шаҳрининг Олмазор туманида тунги ўрганиш ишлари амалга оширилди. Ўрганишлар давомида туман ФВ бўлими 2-ёнгин-қутқарув қисми шахсий таркибининг фавқулодда вазиятларга тайёргарлиги, бириктирилган махсус техникаларнинг шайлиги ва техник ҳолати кўздан кечирилди.

Тадбирлар давомида хавфсизлик чораларини тўлиқ таъминлаш, ёнгин ва бошқа тусдаги фавқулодда вазият-

ларнинг олдини олиш, содир бўлганда зудлик билан бартираф этиш чораларини кўриш юзасидан масъул раҳбарларга кўрсатма ва тавсиялар берилди.

Шунингдек, янги барпо этилаётган Тошкент ихтисослаштирилган Онкология ва радиология илмий-амалий тиббиёт марказининг қурилиш объектларида меҳнат қилаётган қурувчиларнинг ётоқ жойлари, ушбу жойларда турли хусусиятли фавқулодда вазиятларнинг олдини олиш юзасидан мутасаддиларга тушунтириш ишлари олиб борилди.



МУҲИМ УЧРАШУВ

Фавқулодда вазиятлар вазири ўринбосари полковник Х.Алибаев бошчилигидаги ишчи гуруҳ томонидан Қорақалпоғистон Республикаси ҳамда Хоразм вилоятининг барча шаҳар ва туман ФВ бўлиmlари шахсий таркибининг маънавий-маърифий ва ахлоқий-руҳий тайёргарлиги ўрганилди.

Қораўзак, Тахтақўпир, Гурлан, Янгибозор, Хонқа ва Урганч туманлари ФВ бўлиmlари шахсий таркиби билан ўтказилган учрашувлар давомида шахсий таркибга Ватан ва халқ манфаатлари йўлида садоқат билан хизмат қилиш шарафли ҳамда муқаддас бурч эканини англашти, хизмат бурчини бажаришда қо-

нунийликка қатъий риоя этиш туйғусини чуқур сингдириш зарурлиги қайд этилди.

Ўрганишлар якунига кўра, маънавий-маърифий ишлар, ижтимоий ҳимоя, моддий ва тиббий таъминот ҳолати, шунингдек, ҳарбий хизматчилар ва хизматчиларнинг билим салоҳиятига баҳо берилди.



ФВВ – СОВРИНДОРЛАР САФИДА

Халқаро ёнгин ўчирувчилар ва қутқарувчилар спорти федерацияси ташаббуси билан Россия Федерациясининг Волгоград шаҳрида ёнгин-қутқарув спорти бўйича “Дўстлик” кубоги ва “Олтин ишғол қилиш нарвони” халқаро мусобақалари бўлиб ўтди.

Мазкур халқаро турнирда Россия Федерацияси, Беларус, Озарбайжон, Қозоғистон, Болгария, Камерун, Туркия, Қатар ҳамда Чехия давлатларининг вакиллари қаторида мамлакатимизнинг ёнгин-қутқарув спорти бўйича терма жамоаси вакиллари ҳам фаол иштирок этишди.

Мусобақа якунига кўра, эркаклар жамоаси эстафе-

та тури бўйича 3-ўринни, жанговар ёйилиш тури бўйича 2-ўринни, умумжамоа ҳисобида 3-ўринни эгалладилар. Шунингдек, қизлар жамоаси жанговар ёйилиш тури бўйича 2-ўринни, умумжамоа ҳисобида тўртинчи ўринни қайд этдилар.

Терма жамоамиз вакиллари шахсий ҳисобда жами 14 та кумуш ҳамда 4 та бронза медалларини кўлга киритган бўлсалар, эркаклар жамоаси жанговар ёйилиш турида 23,50 сония натижани, шунингдек, қизлар жамоаси вакиласи Ж.Абдуваитова 100 метрга тўсиқлар оша югуриш турида 15,74 сония натижани қайд этиб, миллий рекордларни янгилашга эришдилар.



ХАЛҚАРО КЎРГАЗМА

ФВВ ходимларидан иборат делегация Корея Республикасининг Тегу шаҳрида ўтказилган йигирманчи “Фире Эхпо – 2024” халқаро кўргазмасида иштирок этди. Ушбу тадбирда 30 дан зиёд давлатдан 300 га яқин корхоналар ўзларининг ёнгин-техник ва хавфсизликни таъминловчи маҳсулотлари билан қатнашди.

Кўргазма доирасида Корея ёнгин саноати ва технология институти вакиллари билан ўзаро ҳамкорликни ривожлантириш борасида фикр алмашилди. Шунингдек, бир қатор ўқув семинарлари, давра суҳбатлари ташкил қилинди.



Саҳифани Анвар ҚОБИЛОВ тайёрлади.

ВАТАНПАРВАРЛИК САЙЛИ

Тошкент вилоятининг Оҳангарон тумани “Ёшлар маркази”да ватанпарварлик сайли ўтказилди.

Тошкент ҳарбий прокуратураси, куч тузилмалари, Оҳангарон тумани ҳокимлиги ҳамкорлигида ташкил этилган тадбирда маҳаллалар ёшлари иштирок этди.

Уларга Ватанга муҳаббат ва садоқат, ҳалоллик, меҳнатсеварлик, шунингдек, янги таҳрирдаги Конституциямизнинг моҳияти, юртимиздаги ислохотлар, ёшларга яратилган имтиёзлар ва имкониятлар, ҳарбий хизмат нуфузи хусусида маълумотлар берилди.

Мудофаа вазирлиги, ДХХ Чегара қўшинлари ҳарбий хизматчилари ҳамда Оҳангарон шаҳридаги махсус ҳарбийлаштирилган мактаб ўқувчилари томонидан кўргазмали чиқишлар намойиш этилди.

Аҳроп ХОЛМУМИНОВ,
Тошкент ҳарбий прокуратураси
катта терговчиси, адлия капитани.

САЙЁР ҚАБУЛ

Қуролли Кучлар ҳарбий хизматчилари, ходимлари ва уларнинг оила аъзолари, ҳарбий пенсионерлар ижтимоий ҳимоясини таъминлаш, уларнинг муаммоларини ўрганиш ва ижобий ҳал этишда Ҳарбий прокуратура органлари ва куч тузилмалари ҳамкорлигида республикамиз бўйлаб ўтказиб келинаётган оммавий ва сайёр қабуллар алоҳида аҳамият касб этмоқда.

Бу борадаги тадбирларнинг амалий давоми сифатида Ўзбекистон Республикаси Ҳарбий прокуратураси, Мудофаа ва Фавқулодда вазиятлар вазирлиги, Миллий гвардия ҳамкорлигида Хоразм вилоятида сайёр оммавий қабул ташкил этилди.

Шовот туманидаги 17-сонли Болалар мусиқа ва санъат мактабида ўтказилган қабулда туман ҳокими ва прокурори иштирокида ҳарбий хизматчилар, ходимлар ва уларнинг оила аъзолари, пенсионерлар ва ёшлар иштирок этди. Келиб тушган 60 та мурожаатдан 22 таси жойида ҳал этилди, 12 таси юзасидан тушунтириш берилди, 26 таси назоратга олинган ҳолда тегишли ташкилотларга юборилди.

Н.ИБРАГИМОВ,
Республика Ҳарбий прокуратураси
бўлим катта ҳарбий прокурори,
адлия подполковниги.

ҚИЗГИН МУЛОҚОТ

Самарқанд ҳарбий прокуратураси ташаббуси билан Самарқанд гарнизонида жойлашган ҳарбий қисмда “Ҳуқуқбузарлик ва жиноятчиликка қарши курашида барчамиз масъулмиз” мавзусида мулоқот ўтказилди.

Унда сўз олганлар ҳуқуқбузарлик ва жиноятчиликка қарши кураш бўйича олиб борилаётган ислохотлар ҳамда содир этилган жиноятлар учун жавобгарлик масалалари, уларнинг ҳуқуқий асослари ҳақида маълумот бердилар.

Мулоқот якунида ҳарбий хизматчилар учун шахсий қабул ташкил этилиб, ҳуқуқий тушунтиришлар берилди.

Р.ЛАТИПОВ,
Самарқанд ҳарбий прокурорининг
катта ёрдамчиси,
адлия подполковниги.

Жорий йилнинг ўтган 4 оyi мобайнида Қашқадарё вилояти ФВБга табиий ҳодисалар билан боғлиқ бўлган 6 марта мурожаатлар келиб тушган.

МУРОЖААТЛАРГА ЕЧИМ

Хусусан, Чироқчи туманининг “Болсувар” маҳалла фуқаролар йиғинида яшовчи айрим фуқароларнинг яшаш уйи томорқасини ёғингарчиликлар сабаб юзага келаётган сел сувлари ювиб кетиш хавфи борлиги ҳақида маълумот айтилган.

Мурожаат юзасидан, Қашқадарё вилояти ФВБ масъуллари юқоридаги манзилга барча зарур куч-воситаларни жалб этган ҳолда, дарё қирғоқларини мустаҳкамлаш ва ростлаш ишларини олиб боришмоқда. Шунингдек, вилоят ҳокимининг ўринбосари Муродулла Азизов ва вилоят ФВБ бошлиғи полковник Фарҳод Мирзаев Деҳқонобод туманининг “Ойбек” ва “Оққишлоқ” маҳалласидаги бир нечта қишлоқларида бўлиб, фаоллар билан учрашди. Боиси, ушбу ҳудудларда кучли ёғингарчилик туфайли “Катта ўра” дарёсида сел келиб, ҳашар йўли билан қурилган айрим кичик кўприкларга зиён етган эди. Ушбу манзилларда юзага келиши мумкин бўлган турли фавқулодда вазиятлар билан боғлиқ муаммолари тингланди ва уларнинг ижобий ечими хусусида зарур вазифалар белгиланди.

Ҳ.ҚОСИМХҲАЕВ,
Қашқадарё вилояти ФВБ
бошлиғининг ўринбосари, майор.

ҲАРБИЙЛАР ФАРЗАНДЛАРИНИНГ САЛОМАТЛИГИ ЙЎЛИДА

Айтиш жоизки, “Инсон қадр учун” тамойили бош мезон этиб белгиланиб, шу асосда, Қуролли Кучлар ҳарбий хизматчилари, ходимлари ва уларнинг оила аъзоларини ижтимоий ҳимоя қилишга алоҳида аҳамият берилмоқда. Ушбу жабҳада олиб борилган ўрганишлар давомида Қуролли Кучлар сафида хизмат қилаётган ҳарбий хизматчиларимизнинг болалигидан ногиронлиги, туғма юрак нуқсонли ва бошқа оғир касалликлари боис даволанишга муҳтож бўлган фарзандлари умумий рўйхати шакллантирилди.

Таҳлиллар якунига кўра, ҳарбий прокуратура ташаббуси билан “Болалар миллий тиббиёт маркази” билан ҳамкорликда ишлаб чиқилган режа-график асосида республика бўйлаб ҳарбий хизматчиларнинг фарзандлари учун чуқурлаштирилган бепул тиббий текширувлар ташкил этиб келинмоқда.

Хусусан, ҳозирга қадар Марказнинг малакали шифокорлари томонидан замонавий

тиббий техникалар ёрдамида ҳарбий хизматчиларнинг 200 дан зиёд фарзандлари тиббий текширувлардан ўтказилди.

Уларнинг 10 нафарга яқинида жарроҳлик амалиёти ўтказилди, 5 нафардан ортиқ бола бу жараёнга тайёрланмоқда. Шунингдек, яна 10 нафари стационар даволанишга ётқизилган бўлса, бошқаларига шифокор назоратида бўлиш ва маълум муддатдан сўнг қайта текширувдан ўтиш ҳамда бошқа зарур тиббий тавсиялар берилди.

Бу каби хайрли ишлар кўлами 1 июнь — Халқаро болаларни ҳимоя қилиш куни арафасидаги тадбирлар билан ҳам уйғунлашиб кетди.

Муҳими, ота-оналар фарзандларининг чинакам ҳимоя остида эканлигини яна бир қарра юракдан ҳис этишмоқда.

Қ.ИСРОИЛОВ,
Ўзбекистон Республикаси
Ҳарбий прокурорининг
ўринбосари,
адлия полковниги.



МУҲИМ МАВЗУДА

“Навоийуран” ДК мажлислар залида “Навоий кон-металлургия комбинати” АЖ ва “Навоийуран” ДК объектларида ёнғин хавфсизлигини таъминлашни ташкил этиш маркази ва унинг таркибидаги бўлимлар ҳарбий хизматчи ва хизматчилари билан Навоий ҳарбий прокурори адлия полковниги Жўрабек Ўринов, Навоий вилояти ФВБнинг масъул ходимлари, вилоят ИИБ ҳамда шу соҳага масъул бўлган ҳуқуқни муҳофаза қилувчи органлар ходимлар иштирокида “Биз – коррупцияга қаршимиз!” мавзусида очиқ мулоқот ташкил этилди.

Тадбирда коррупция жамият тараққиётининг кушандаси эканлиги, бу иллатга нисбатан муросасиз муносабатни шакллантиришга нафақат масъул идоралар, балки кенг жамоатчилик ҳамжиҳат ва ҳамфикр бўлиши мақсадга мувофиқлиги қайд этилди. Бундай нохуш ҳодисага нисбатан бефарқ бўлмаслигимиз, аксинча, коррупция иллатини таг томири билан қуритишга қаратилган саъй-ҳаракатларни виждонан бажариш муҳим тўғрисида фикр-мулоҳазалар билдирилди.

Учрашув давомида иштирокчилар ўзларининг қизиқтирган саволларига батафсил жавоб олдилар.

Н.КАРИМОВ,
Навоий вилояти ФВБ
шахсий хавфсизлик бўлими
бош инспектори, капитан.
М.ҲАЙИТОВ,
НКМК ва “Навоийуран”
ДК Ёнғин хавфсизлигини
таъминлашни ташкил этиш
маркази гуруҳ бошлиғи,
катта сержант.

Жиноятга жазо муқаррар

АЛДОҚЧИ ТАЛАБА

Б.Т. Тошкентдаги давлат олий таълим муассасасининг 2-босқич талабаси. У муқаддам ҳам фирибгарлиги учун судланган. Эски “касби”ни ташламагани боис, яна судланди. Гап шундаки, у ўзганинг мулкни алдаш ва ишончли суиистеъмол қилиш йўли билан қўлга киритган.

– Олмазор туманидаги “Сезбор” мавзусида А.А. билан учрашдим, – деди судда судланувчи Б.Т. – Ўзимга тегишли енгил автомашинани бўлиб-бўлиб тўлаш шарти билан унга 12.500 АҚШ долларига сотишга келишдик. Бошланғич тўлов сифатида А.А. дан 4000 доллар олдим. Орадан 2 ой ўтгач, у мендан машинани ўзининг номига расмийлаштириб беришимни сўради. Мен алдаб юравердим. Тўғриси, пулни эҳтиёжимга сарфлаб юборгандим. Айбимга иқрорман. Бундан кейин бу каби жиноятларни содир этмайман.

– Б.Т.га ишониб унга 4100 АҚШ доллари бердим, – деди судда жабрланувчи А.А. – У келишганимиздек, 2 ойда машинани менинг номимга расмийлаштириб бериши керак эди. Аммо Б.Т. мени алдади. Телефонларимга умуман жавоб бермади. Кейин эса телефонини бутунлай ўчириб қўйди. Шундан сўнг ички ишлар органларига ариза билан мурожаат қилдим. Олган пулни қайтариб бергани йўқ. Шу сабабли судланувчидан зарарни ундириб беришингизни ҳамда унга қонун доирасида жазо тайинлашингизни сўрайман.

Суднинг ҳукми билан муқаддам қатор жиноятларни содир этганлигини ҳисобга олиб, Б.Т. 5 йил 1 ой муддатга озодликдан маҳрум этилди. У жазони қаттиқ тартибли колонияда ўтказиши белгиланди.

А.ЖАЛИЛОВ,
жиноят ишлари бўйича Яққасарой
туман судининг раиси.

ИЛЛАТГА ҚАРШИ

Коррупция – энг хатарли иллат. Унга қарши нафақат мутасадди идора ёки ташкилотлар, балки касби ва ёшидан қатъий назар ҳар бир фуқаро курашиши лозим. Коррупцияга қарши курашиш бўйича фаолиятни қонунчиликка мувофиқ бошқа давлат органлари ҳам амалга оширади. Давлат органлари ходимларининг коррупцияга оид ҳуқуқбузарликлар фактлари тўғрисида хабар қилиш мажбурияти (26-модда) давлат органларининг ходимлари уларни коррупцияга оид ҳуқуқбузарликлар содир этишга кўндириш мақсадида, бирор-бир шахс ўзларига мурожаат этганлигига доир барча ҳоллар тўғрисида, шунингдек, давлат органларининг бошқа ходимлари томонидан содир этилган шунга ўхшаш

ҳуқуқбузарликларнинг ўзларига маълум бўлиб қолган ҳар қандай фактлари ҳақида ўз раҳбарини ёхуд ҳуқуқни муҳофаза қилувчи органларни хабардор этиши шарт.

Коррупцияга оид ҳуқуқбузарлик содир этган шахслар суднинг қарорига кўра муайян ҳуқуқлардан, шу жумладан, муайян лавозимларни эгаллаш ҳуқуқидан қонунга мувофиқ маҳрум этилиши мумкин. Юридик шахслар коррупцияга оид ҳуқуқбузарликларни содир этганлик учун қонунда белгиланган тартибда жавобгар бўлади.

ФВВ Шахсий хавфсизлик бошқармасининг коррупцияга қарши курашишдаги асосий мақсадлари:

ходимларнинг ҳуқуқий онги ва ҳуқуқий маданияти даража-

сини ошириш орқали уларнинг коррупцияга нисбатан мурасимиз муносабатини шакллантириш;

коррупцияга оид ҳуқуқбузарликларга йўл қўймаслик;

манфаатлар тўқнашувининг олдини олиш;

ходимларнинг одоб-ахлоқ қоидаларига, юксак хулқ-атвор меъёрларига содиқлигига эришиш;

коррупциявий ҳуқуқбузарликни барвақт аниқлаш, олдини олиш ҳамда келтириб чиқарувчи сабаб ва шарт-шароитларни бартараф этиш, шунингдек, жавобгарликнинг муқаррарлигини таъминлаш каби вазифаларни назарда тутати.

У.ҚОСИМОВ,
Тошкент шаҳар ФВБ ШХБ
бош инспектори,
подполковник.

ИМТИЁЗЛАР БЕРИЛДИ

Қашқадарё вилояти Фавқулодда вазиятлар бошқармасида аҳоли ва ҳудудларни табиий ҳамда техноген хусусиятли фавқулодда вазиятлардан муҳофаза қилиш ва содир бўлганда бартараф этишга муносиб ҳисса қўшиб келаётган бир гуруҳ ҳарбий хизматчиларнинг фарзандларига республика олий таълим муассасаларига имтиёзли ўқишга киришлари учун тавсиянома тақдим этилди.

Тантанали маросим давомида сўз олганлар бундай имконият ва имтиёзлардан, аввало, миннатдор эканликлари, соҳани янада юксалтириш ва тараққий этишида, аҳолининг тинчлиги, осойишталиги, турли фавқулодда вазиятларда азият чекмасликлари йўлида ҳамиша хизматга шай эканликларини таъкидладилар.

Ёшларга эса бу имтиёзлардан оқилона фойдаланишлари эл-юрт, жамият истиқболи учун муносиб кадрлар бўлиб камол топишларини тиладилар. Тадбир сўнггида ўғил-қизлар ҳам мақсадлари йўлида бу ишонччи оқлашларини таъкидладилар.

Ў.ҲАКИМОВ,
Қашқадарё вилояти ФВБ бошлиғининг
ўринбосари, подполковник.

МАҲОРАТ МАКТАБИ

ФВВ экспертиза бўлинмалари ходимларининг билим ва малакасини ошириш учун ташкил этилган ўқув машғулотларига ФВВ Академияси профессор-ўқитувчилари жалб қилиниб, маҳорат машғулоти ташкил этилди. Унда “Ёнғинлар юзасидан терговга қадар текширув ва экспертизаси” мавзуси бўйича терговга қадар текширувни амалга оширувчи органларнинг ваколатлари ва мажбуриятлари, терговга қадар текширув даврида расмийлаштирилаётган ҳужжатлар, экспертиза ҳақида тушунчалар, ёнғинлар сабабини аниқлашда тайинланадиган айрим экспертиза турлари тўғрисида кенг қамровли маълумотлар етказилди.

А.ЛИТЯГА
ФВВ Академияси кафедра
бошлиғи, подполковник.



АНЖУМАН

Наманган вилояти ФВБда журналист ва блогерларни жалб қилган ҳолда баҳор-ёз фаслида юзага келиши мумкин бўлган сел ва сув тошқинлари, хавфли юқумли касалликлар, ёнғинлар ва бошқа тусдаги фавқулодда вазиятларнинг олдини олиш юзасидан матбуот анжумани ўтказилди.

Унда вилоят ФВБ бошлиғи ўринбосарлари ва масъул ҳарбий хизматчилар иштирок этидилар.

Тадбирда журналист ва блогерларнинг соҳага оид саволларига жавоблар берилиб, сел ва сув тошқинлари, ўта хавфли юқумли касалликлар, ёнғинларнинг олдини олиш бўйича тақлифлари ҳам тингланди.

Қаҳрамон САТТАРОВ,
Наманган вилояти ФВБ
ахборот хизмати бошлиғи, капитан.

СЕМИНАР

Андижон вилояти ФВБ ҳудудий бошқармалар ва таркибий тузилмалар иш юритиш ва архив ишлари бўлинмаси бошлиқлари, мурожаатлар ҳамда ижро интизомига масъул ходимлар билан ўқув-амалий семинар бўлиб ўтди.

Семинар давомида иштирокчиларнинг “Жисмоний ва юридик шахсларнинг мурожаатлари тўғрисида”ги қонуни борасидаги билим кўникмалари мустаҳкамланди. Шунингдек,

семинар қатнашчиларини вақтини мазмунли ва мароқли ўтказиш мақсадида Андижон вилоятининг тарихий обидалари, музейлар ва кўнгиладар очар боғларга ташрифи ташкилланганлиги.

Семинар якунида семинар қатнашчиларига Андижон вилояти Фавқулодда вазиятлар бошқармасининг эсдалик совғалари топширилди.

Ҳ.РАҲИМОВ,
Андижон вилояти ФВБ
ахборот хизмати бошлиғи,
катта лейтенант.

ОГОҲЛИК

Навоий вилояти ФВВда “Коррупцияга қарши курашишни ўзимизни ислоҳ қилишдан бошлайлик” мавзусида давра суҳбати бўлиб ўтди. Унда сўзга чиққан масъуллар коррупцияга қарши курашишнинг бугунги кунда нечоғлик долзарблиги, унинг ҳуқуқий асослари тўғрисида гапириб ўтишди.

Тадбирда таъкидланганидек, жиноятни жазолашдан кўра, унинг олдини олиш сингари профилактик тадбирларнинг йўлга қўйилиши қай даражада оқилоналиги аллақачон исботланган. Коррупциянинг маълум бир мамлакатда ривожланиши ўша давлатнинг таназулига олиб келади.

Давлатнинг сиёсий, иқтисодий, ҳуқуқий тизимига путур етишига, натижада амалдаги ҳокимиятга нисбатан норозиликка сабаб бўлади.

Уйлаймизки, бундай маънавий бузилиш ҳолатига қарши курашда нафақат давлат органлари, балки жамият ва барча фуқароларимиз масъулдирлар.

О.ШАРИПОВ,
Навоий ҳарбий прокурори
катта ёрдамчиси,
адлия подполковниги.
А.ШЕРАЛИЕВ,
Навоий вилояти ФВБ
маънавий-маърифий ва
тарбиявий ишлар бўлими
бошлиғи, капитан.

ҲАМКОРЛИК

Фуқаро муҳофазаси институти фавқулодда вазиятлар Симуляция марказида “SMART SCHOOL” ва “PROFI SCHOOL” хусусий мактаб ўқувчилари билан “Турли хусусиятли фавқулодда вазиятларнинг олдини олиш ҳамда содир бўлганда тўғри ҳаракат қилиш” мавзусида замонавий ахборот коммуникация технологиялари кенг қўлланилган инновацион интерактив хоналарида амалий машғулотлар ўтказилди. Машғулотлар давомида ўқув-

чилар “Зилзила вақтида тўғри ҳаракат қилиш”, “Био ва иншоотларда ёнғин содир бўлганда тўғри ҳаракат қилиш” ва “Бирламчи ўт ўчириш воситаларидан тўғри фойдаланиш” мавзуларига бағишланган ўқув хоналарига юқори қизиқиш билдиришди.

Л. ГАЛИМОВА,
Фуқаро муҳофазаси
институти Фавқулодда
вазиятлар симуляция
маркази катта ўқитувчиси,
О. ШАРАПОВ ўқитувчи.

ЁШЛАР ВА ТЕАТР

Мирзо Улуғбек тумани ФВ бўлими ходимлари туманининг 2-сектор ҳудудида яшовчи уюлмаган ёшларнинг бўш вақтларини мазмунли ўтказиш мақсадида Ўзбекистон Давлат сатира театрига ташриф буюришди. Режиссёр Мансур Холиқовнинг “Кўш арава юки” номли спектаклини томоша қилдилар.

Ф.ИСЛОМОВА,
Мирзо Улуғбек тумани ФВ бўлими
бошлиғининг маънавий-маърифий ишлар
бўйича ўринбосари.

“ОЧИҚ ЭШИКЛАР КУНИ”

Учқудуқ тумани фавқулодда вазиятлар бўлими томонидан ёшларни ватанпарварлик руҳида тарбиялаш ва ҳуқуқий саводхонлиги ҳамда қонунга итоаткорлик ҳиссини ошириш мақсадида, мактаблар ва профессионал таълим тизимидаги ўқувчи-ёшлар иштирокида “Очиқ эшиклар куни” тадбири ўтказилди.

Тадбир давомида ёнғин-қутқарув ишлари хусусида тушунтиришлар берилиб, ёнғин ўчириш техникалари ва масхус асбоб-анжомлар кўргазмаси ташкил этилди. Кўргазма жараёнида ўқувчиларга ёнғин ўчириш мосламаларидан фойдаланиш тартиби амалда кўрсатилиб, уларнинг саволларига жавоб берилди.

У.ҒАЙБУЛЛАЕВ,
Учқудуқ тумани ФВ бўлими
ходими, лейтенант.

ТУШУНТИРИШ

Олмазор тумани ФВБ Профилактика ва назорат бўлинмаси инспектори катта лейтенант М.Муродов томонидан “Республика велоспорт маҳорат мактаб интернати” сейсмологик ҳодисалар, фавқулодда вазият ва ёнғин хавфсизлигини таъминлаш борасида профилактик тушунтириш ишлари ташкил этилди. Зилзила юз берганда ҳаракат қилиш чораларини амалий машғулот кўриниши орқали ўқувчилар билан бинони тез ва самарали беталафот терк этиш бўйича машғулот ўтказилди. Ваҳимага тушмаслик, хотиржамликни сақлаш лозимлиги таъкидланди.

С.МАДИЯЕВ,
Ўзбекистон Республикаси Олий мажлиси
қонунчилик палатаси профилактика
инспектори, кичик сержант.
М.МИРЗОЕВ,
Олмазор тумани ФВ бўлими
профилактика инспектори,
лейтенант.

MAJMUADA MASHG'ULOT

G'uzor tumanidagi yirik ishlab chiqarish korxonalaridan hisoblangan "Sho'rtangaz-kimyo" majmuasida "Xizmat vaqtida jarohatlanish holatlari va kasb kasalliklarining oldini olish, mehnat muhofazasi masalalariga e'tiborni yanada kuchaytirish" mavzusida seminar bo'lib o'tdi.

Seminarda Qashqadaryo viloyati FVB va uning quyi tuzilmalaridagi mas'ul xodimlar ishtirok etdi. Jarayonda mutaxassislar tomonidan mehnatni muhofaza qilish standartlari, qoida va me'yorlarida nazarda tutilgan majburiyatlar bo'yicha atroflicha tushuntirishlar berildi.

Shuningdek, boshqarmada "Avtotransportlardan foydalanishda yo'l harakati qoidalariga qat'iy rioya qilish" mavzusida seminar-trening o'tkazildi. Mas'ullar tomonidan yo'l-transport hodisalari bilan boshliq turli ko'ngilsiz holatlarning oldini olish, yo'l harakati qoidalariga rioya etish lozimligi ta'kidlab o'tildi.

M.OSTONOV,
Qashqadaryo viloyati FVB
boshlig'i o'rinbosari –
Shtab boshlig'i podpolkovnik.



KURSANTLAR DAVLAT IMTIHONIDA

Ixtisoslik fanlaridan yakuniy davlat attestatsiya sinovlarining birinchi kuni 5-batalyon 505 – 506-guruh kursantlari bilan o'tkazildi.

Ushbu sinovlar og'zaki savol-javob tarzida bo'lib, tegishli tasdiqlangan biletlar asosida savollarga javob berishmoqda.

Sinov natijalariga ko'ra, bitiruvchi kursantlar komissiya a'zolari tomonidan adolatli va shaffof tarzda baholandi.

Akademiya axborot xizmati.

DOVONDA YASHIL MAKON

"Qamchiq" maxsus qidiruv, yong'in-qutqaruv boshqarmasi tomonidan shu yilning o'zida 10 mingdan ortiq ko'chatlarni ekish bo'yicha ijobiy ishlar amalga oshirildi.

Boshqarma xodimlari bu bilan cheklanib qolmasdan, Toshkent viloyati Angren shahrida joylashgan "Shahidlar qabristoni"ga ham ko'kalamzorlashtirish, obodonlashtirish maqsadida 400 dan ortiq mevali va manzarali ko'chatlar ekilshdi.

Qutqaruvchilar tomonidan ekilgan ko'chatlar unib-o'sib ketishi uchun zamonaviy usulda, ya'ni tomchilatib sug'orish tizimi yo'lga qo'yilib, har haftaning shanba kuni mazkur ko'chatlarga ishlov berish, parvarishlash tadbirlari tizimli olib borilmoqda.

A.QUDRATOV,
Navbatchi-dispatcherlik bo'limi
boshlig'i,
kichik serjant.

YOSHLAR ISHTIROKIDA

Toshkent shahar Sergeli tumanidagi ixtisoslashtirilgan Prezident maktabida akademiya harbiy xizmatchilari tomonidan "Mamlakatimizda xotin-qizlar ta'limini qo'llab-quvvatlash bo'yicha berilgan imtiyoz va imkoniyatlar" mavzusida ochiq muloqot o'tkazildi.

Tadbirda Favqulodda vaziyatlar vazirligi Akademiyasi harbiy xizmatchilari, orkestr jamoasi, maktab direktori Shoira Qo'ldosheva hamda o'qituvchilar ishtirok etdilar.

Muloqotda so'zga chiqqanlar tomonidan xalqimiz tarixida buyuk alomalar, jahongir bobolarimiz qatorida, bunday insonlarni dunyoga keltirib, tarbiyalagan, ulug'vor ishlarga ruhlantirgan fozila ayollar ham ko'p bo'lganligini, hozirda ham xotin-qizlarimiz farzand tarbiyasida, turli sohalarda, mahallalarda fidoyilik ko'rsatayotganligini ta'kidladilar.

M.BADALBAYEVA,
Akademiya katta o'qituvchisi,
podpolkovnik.

O'QUV MASHQI



Ohangaron tumanidagi "Qorasuvyoqa" hamda "Susam" MFYlar hududidan oqib o'tuvchi "Kandirsoy"ning 1000 metr qismida o'zan tozalash, qirg'oq mustahkamlash ishlarini tashkil etish yuzasidan maxsus-taktik o'quv mashqi o'tkazildi.

O'quv mashqi davomida 7300 metr ichki yo'llar shag'alashtirildi.

J.ABDIVAYITOV,
Ohangaron tumani FV
bo'limi
50-YQQ boshlig'i, kapitan.
Z.Eshnazarov, katta
inspektor, katta leytenant.

Har bir inson har kuni qiladigan ishini xuddi birinchi marta qilayotgandek bajarishi kerak. Shundagina ishida rivojlanish bo'ladi. FVV Akademiyasi 5-batalon kursanti Latipov Akbarjonning ham hayotdagi shiori ana shunday.

MAQSAD SARI DADILLIK BILAN



Har bir inson har kuni qiladigan ishini xuddi birinchi marta qilayotgandek bajarishi kerak. Shundagina ishida rivojlanish bo'ladi. FVV Akademiyasi 5-batalon kursanti Latipov Akbarjonning ham hayotdagi shiori ana shunday.

Akbarjon bilan suhbatimiz sharafli kasb – qutqaruvchilik haqida bo'ldi.

– **Harbiy sohaga qiziqishingiz qachondan boshlangan? Yoki oila a'zolaringiz orasida harbiylar bo'lganmi?**

– To'g'risi, bu sohaga yoshligimdan qiziqqanman. Uyda otam harbiy bo'lganliklari sababli akam ikkalamiz ham qiziqib, shu sohani tanlaganmiz. Oilada ikki o'g'ilmiz, akam bilan yoshligimizdan harbiy litseyda o'qib, chiniqqanmiz. Xususan, men 1-sonli Toshkent shahar IIV akademik litseyida o'qiganman. Oliy ta'limga to'xtaladigan bo'lsak men FVV Akademiyasini tanladim. 2019-yilda Akademiyaga o'qishga kirganman. Shu kunga kelib, akam kabi mening ham orzuyim ham ushaldi, ya'ni harbiy sohadaman.

– **Nima sababdab aynan qutqaruvchilik sohasini tanlagansiz?**

– Qutqaruvchilik kasbini tanlashimdan maqsad – insonlar mushkulini oson, vatandoshlarimizning og'irini yengil qilish. Avvalo, hech insonning boshiga og'ir kunlar tushmasin. Lekin men shunday holatlarda insonlarga yordam berishni xohlaganim uchun ham shu kasbdaman.

Ham savobli, ham sharafli kasb bu. Qutqaruvchilarning odamlarga yordam berish jarayonini ko'p kuzatganman. Shunday holatlarning shohidi bo'lganman. Shu sabablimi, sohaga mehrim tushib qolgan.

– **Siz o'zingizni soha sirlarini mukammal o'zlashtirib kelayotgan kursantlar safiga qo'sha olasizmi?**

– Besh yildan beri o'qib kelayotgan bo'lsak, bitirishimizga ham sanoqli kunlar qoldi. Yo'nalishim – Davlat yong'in xavfsizlik

nazorati. Korxonada bo'ladimi yoki tashkilot, joylarda yong'in xavfsizligining qay darajada tashkil etilganligini o'rganamiz. Talablarga javob beradimi, shuni tahlil qilish bilan bir qatorda, yonish va portlash kabi holatlarning oldini olish bo'yicha turli soha vakillariga tushuntirish hamda yo'riqnomalar berib boramiz. Bu bo'yicha alohida qo'llanma va taktikamiz bor. O'zimizdan kelib chiqib aytadigan bo'lsam, tahsil davomida sohamiz bo'yicha darsliklar va qo'lyozmalarni mukammal o'rganishga harakat qildim. Bugun o'z nazariy va amaliy bilimlarimni safdoshlarim bilan birga, amaliyotga tatbiq etib kelmoqdamiz.

– **Kursantlar uchun tashkil etilgan ko'rik-tanlovlar yoki musobaqalardagi ishtirokingiz va natijalar haqida to'xtalsangiz...**

– Akademiya davomida musobaqa va ko'rik-tanlovlar muntazam o'tkazib kelinadi. Bayramlar arafasida bunday tadbirlar ko'p uyushtiriladi. Biz ularda jamoaviy qatnashamiz. Misol uchun 1996-yil 4-martda FVVni tashkil topgan kuniga bag'ishlab o'tkazilgan musobaqalarda tosh ko'tarish, arqon tortish bo'yicha faxrlari o'rinlarni egalladik. O'zim ham tosh ko'tarish va erkin kurash sport turi bilan muntazam shug'ullanaman.

– **Akademiya kirmoqchi bo'lgan yoshlarga qanday tavsiyalar bergan bo'ladingiz?**

– Avvalo, o'z ustida tinimsiz ishlashni, o'z tanlagan kasbini sevish, fidoyi bo'lish, har bir ishga mas'uliyat bilan yondashish muhim vazifa ekanligini eslatib o'taman. Qutqaruvchilikni tanlagan har bir yigit sport bilan muntazam shug'ullanishi, ko'p kitob o'qishi, ma'naviyatini boyitib borishi kerak. O'z manfaatidan xalqini insonlarini manfaatini ustun qo'ymog'i kerak. Qolgani harakatga, niyatga qarab o'zi ketaveradi, albatta.

Sevinch MAHMUDOVA,
O'ZJOKU harbiy
jurnalistika talabasi.

UCHRASHUV

Qashqadaryo viloyati FVB boshlig'i polkovnik F.Mirzayev tomonidan tizim xodimlari uchun sayyor qabul o'tkazildi.

Qabul jarayonida 20 dan ziyod harbiy xizmatchilar va xizmatchilarning xizmat joyini ko'chirish, tibbiy xizmat, pensiya, uy-joy masalalari, oila a'zolarini bandligi va boshqa masalalar bilan bog'liq murojaatlari mas'ullar ishtirokida o'rganib chiqildi. Har bir murojaatni joyida hal etish choralari ko'riladi. Bartaraf etish uchun vaqt talab etiladigan murojaatlar bo'yicha muddat belgilangan holda ijrosi nazoratga olindi.

Shuningdek, polkovnik F.Mirzayev, Shahrisabz "Temurbeklar harbiy akademik litseyi"da o'qish istagini bildirgan G'uzorlik yoshlar bilan uchrashdi. Qolaversa, FVB boshlig'i tashabbusi bilan Koson tumani "Navroz" mahallasi yoshlari, 2-sonli kasb-hunar maktabi o'quvchilari hamda tumanning 2-sektor yoshlari bilan "Mehnat yarmarkasi" va kasbga yo'naltirishga qaratilgan "Ochiq eshiklar kuni" tadbirlari o'tkazildi.

**Qashqadaryo viloyati
Axborot xizmati**



Favqulodda vaziyatlar vazirligi Akademiyasining bir guruh harbiy xizmatchilari farzandlariga ham kvota asosida respublika oliy ta'lim muassasalarining bakalvriat bosqichiga o'qishga kirishlari uchun tavsiyanomalarni tantanali topshirish tadbiri o'tkazildi.

TAVSIYANOMALAR TOPSHIRILDI

Tadbirda Favqulodda vaziyatlar vazirligi Akademiyasi faxriylari, professor-o'qituvchilari, harbiy xizmatchilari va ularning oila a'zolari, kursantlar va yoshlar ishtirok etdi.

Tadbiri akademiya boshlig'i general-mayor Ravshan Haydarov ochib, mamlakatimizda yoshlar masalasi har doim davlat siyosati darajasidagi muhim masala bo'lib kelganligi, so'nggi yillarda yoshlarimiz uchun yaratilayotgan keng ko'lamdagi imkoniyat va shart-sharoitlar, ularning o'qib-o'rganishlari, qizg'in faoliyat ko'rsatishlari uchun qaratilayotgan e'tibor va g'amxo'rlik dunyo hamjamiyati tomonidan e'tirof etib kelanayotganini ta'kidladi.

Yakunda akademiya Orkestr jamoasi va taklif etilgan san'atkorlar ijrosidagi kuy-qo'shiqlar tadbiri ishtirokchilarida katta taassurotlar qoldirdi.

**Farhodjon XOJAYEV,
akademiya katta
o'qituvchisi, mayor.**

MAS'ULIYAT VA BURCH

Namangan viloyati FVB Kosonsoy tumani FB bo'limi xodimlari tomonidan Buloqboshi mahalla fuqarolar yig'ini hududida joylashgan 26-umumta'lim maktabida simulyatsion o'quv-mashqi o'tkazildi.

Unda viloyat Favqulodda vaziyatlar boshqarmasi, QYO jamiyati, tuman favqulodda vaziyatlar bo'limi, daxldor tashkilot vakillari, maktab ishchi-xodimlari hamda mahallada istiqomat qiluvchi fuqarolar ishtirok etdilar.

O'quvchilarni zilzila vaqtida bino va inshootlardan qanday evakuatsiya qilish, evakuatsiya qilingan fuqarolarga birinchi yordam ko'rsatish bo'yicha amaliy va nazariy tushuntirish ishlari olib borildi.

**Ubaydullo MANSUROV,
Kosonsoy tuman FV bo'limi
Tezkor bo'linmasi boshlig'i,
katta leytenant.**

Qashqadaryo viloyatining Kasbi va Mirishkor tumanlarida uch kunlik Qo'mondonlik-shtab o'quv mashqlari bo'lib o'tdi.

TAYYORGARLIK

O'quv mashq davomida shartli ravishda qo'shni respublikalardan birida sodir bo'lgan kuchli yer silkinishi natijasida erta tongdan birvarakayiga ham Mirishkor ham Kasbi tumanlari aholisi uchun yig'in signali chalindi. Belgilangan tartibda mutasaddilar ogohlantirildi. Barcha korxonalar va tashkilot rahbarlari ishtirokida o'tkazilgan yig'ilishda esa tegishli topshiriqlar berildi. Zilzila natijasida ko'rilgan talafotlarni zudlikda bartaraf etish va aholi vakillariga yordam ko'rsatish maqsadida barcha kuch vositalari bir manzilga jamlandi. Bir vaqtning o'zida har ikki tuman mexanizatsiya ishlari yig'ma otryadlarining saf ko'rigi tashkil etildi. Jabr chekkan "Mirishkor" mahalla aholisining xavfsizligini ta'minlash maqsadida, qariyb 450 nafar fuqaroni "Yangi Mirishkor" mahallasi hududidagi kasb-hunar maktabiga ko'chirish hamda ularning xavfsizligini ta'minlash choralari ko'ridi. Avariya natijasida yong'in sodir bo'lganda, tezkor xizmatlarning tayyorlik darajasi aniqlandi.

**R.MO'MINOV,
Qashqadaryo viloyati FVB Tezkor bo'lim
bosh inspektori, kapitan.**

KASBIM BILAN FAXRLANAMAN!

Vatanimiz tinchligi va farovonligini ta'minlash yo'lida ajdodlarga munosib avlod bo'lib kelayotgan yoshlar safi kengayib bormoqda. Andijon viloyati FVB ish yuritish, ma'lumotlar va arxiv ishlari bo'limi boshlig'i kichik serjant Oybek Qodirjonov ana shunday umidli yoshlardan biri sanaladi.

Oybekning aytishicha, bolaligidan harbiy sohaga qiziqqan. Televizorda harbiy kinolarni ko'p ko'rar, bu esa uning shijoatini oshirardi. Aynan qutqaruvchilik sohasiga ota-onasi sababli kirib kelgan. Otasi unga yigitlik burchini ado etish lozimligini, yurtning himoyachisi bo'lish har bir yigitga faxr ekanligini ko'p bor ta'kidlagan. Onasi esa qo'shni yigitning harbiy kiyim-boshda viqor bilan turib, qo'li ko'ksida salom berganida unga havas bilan boqqanlarini ko'p eslatgan. Bu o'z navbatida, qahramonimiz qalbida qutqaruvchilik kasbiga havas uyg'otgan desak, xato qilmagan bo'lamiz.

Shu tariqa Oybek maktabda o'tkaziladigan sport musobaqalarida faol qatnashib, asta-sekin natijalarga erisha boshladi. Vaqtlar o'tib, havas qilsa arzigulik yigit bo'lib yetishdi va bugun sharaflilik kasb egasi.

– Yoshim ulg'ayib, hayotni tushunganim sayin ota-ona duosining farzand hayotida qanchalik ulug' o'rin egallashini tushunib bormoqdaman. Ularning oltinga teng so'zlari va duolari meni faqat yaxshilik, fidoyilik sari rag'batlantiruvchi hikmat ekanligiga amin bo'lmoqdaman – deydi qahramonimiz biz bilan suhbatda.

Oybek ilk xizmat faoliyatini qutqaruvchilikdan boshlagan. Insonlarning hayotini saqlash, farovonligini ta'minlash, xavf-xatardan ogohlantirish, o'z vaqtida qutqarish ushbu kasb egalarning burchi hisoblanadi. Qahramonimiz sohaga 2014-yilning yanvar oyidan kirib kelgan. Yong'in-qutqaruvchi lavozimida xizmat qilgan.

2016-yili Jalaquduq tumanida katta avtohalokat natijasida yong'in yuz bergan. Bunday hodisalarda insonlarni tezkorlik bilan qutqarish, birinchi tibbiy yordam ko'rsatish, ruhiy holatdan olib chiqish asosiy vazifa sanaladi. Voqea ro'y bergan joyda jarahatlangan insonlarni nazoratga olib, yordam ko'rsatildi. Albatta,



bu jarayonda qahramonimiz va uning safdoshlariga malakali mutaxassislar hamda ustozlardan olgan nazariy va amaliy bilimlar juda asqotdi.

Qutqaruvchi kim? Bu so'zni aytganimizda, beixtiyor ko'z oldimizda o'z jonidan kechib, hayoti qil ustida qolgan odamlarni xavfdan qutqarib qolish uchun butun borlig'ini fido etgan vatanparvar inson siymosi gavdalanadi.

Tog'dami, cho'ldami, qayerda bo'lmasin, ular xizmatga shay turadilar. Ular elu yurtga xizmat qilishdan baxt topgan fidoyilardir.

– Chet davlatlarning ilg'or tajribalarini o'rganib, ularni xizmat faoliyatimda qo'llamoqchiman. Bu soha samaradorligini oshirishga xizmat qiladi. Tajriba va mahoratimiz qanchalik oshsa, faoliyatimizda shuncha ko'p yuqori natijalarga erishamiz, albatta, – deydi qahramonimiz suhbat yakunida.

Farzandlarining o'z dadasi va u tanlagan sharaflilik kasbi bilan bilan faxrlanishlari – unga bir olam quvonch bag'ishlaydi. Ha, agar farzandlar ota izidan borsa, yuqori natijalarga erishib, el-yurt manfaatlarini yo'lida sadoqat bilan xizmat qilsa, inson uchun bundan ortiq baxt bo'lmasa kerak...

Biz ham, o'z navbatida, qahramonimizga sharaflilik va mas'uliyatli vazifa yo'lida bugungidek bardamlik, ulkan shijoat va mustahkam salomatlik yor bo'lishini tilab qolamiz.

**Rushana ROZABOYEVA,
O'zJOKU harbiy
jurnalistika talabasi.**



– Men tanlagan kasbimdan faxrlanaman, deydi suhbat yakunida qahramonimiz.

Har bir kursant oliy harbiy o'quv yurtini tamomlar ekan, yakunda diplom ishini yoqlaydi. Javlonbek ham o'z diplom ishidagi bir qator takliflarni ilgari surgan. Umid qilamizki, uning ham takliflari yurtimizda aholi va hududlarni favqulodda vaziyatlardan muhofaza qilish ishiga munosib hissa bo'lib qo'shiladi.

O'z navbatida, qahramonimizga kelgusidagi ishlarida ulkan muvaffaqiyatlar yor bo'lsin deb, yurtimiz manfaatlarini ta'minlashdagi sharaflilik vazifasida mustahkam salomatlik tilab qolamiz.

**Ruxshona SOIBJONOVA,
O'zJOKU talabasi.**

JAVLONBEKNING SHIJOATI

Vatanimiz himoyachilari sadoqatli xizmatlari davomida vatanimiz tinchligi, xalqimiz xotirjamligi yo'lida o'z burchlarini sharaflilik bilan ado yetib kelmoqdalar. Men bugun FVV akademiyasining baxtiyor kursantlaridan biri bilan suhbat olib bordim.

Alaqqarav Javlonbek Akrom o'g'li Jizzax viloyatining G'allaorol tumanida dunyoga kelgan. Harbiy sohaga qiziqishi yoshlik davrlaridan boshlangan. Do'stlari, sinfdoshlari bilan turli sport to'garaklariga qat-

nashib, tuman birinchiliklarida ham g'olib bo'lishgan.

U maktab davrlaridanoq qutqaruvchilik sohasida o'zini ko'ra olgan haqiqiy mard o'g'lonlardan, desak aslo yanglishmagan bo'lamiz. Suhbatimiz davomida Javlonbek akademiyada o'tadigan bir kuni haqida gapirib berdi.

Qayd etishicha, akademiyada yangi o'quv binosi o'z faoliyatini boshlagan. Yangi va zamonaviy sport anjomlari, kompyuterlar kur-

santlar ixtiyoriga topshirilgan. Har bir o'qituvchi-professor o'z kasbining mohir ustasi. Ularning qo'lida tahsil naqadar mas'uliyatli. Kursantlar ushbu jonkuyar ustozlar rahbarligida nazariy bilimlarini amaliyotda qo'llab boradilar. Masalan, favqulodda vaziyatlarning oldini olish, yong'in vaqtida qanday harakat qilish, ushbu ofatlarning oqibatlarini bartaraf etish sirlari puxta o'rgatib boriladi.



SAYOHAT

“Qamchiq” maxsus qidiruv yong'in-qutqaruv boshqarmasi yong'in-qutqaruv otryadi shaxsiy tarkibi va ularning oila a'zolari “Chust o'lkashunoslik muze-yi”ga borib, tuman tarixiga oid ko'plab eksponatlar va tarixiy yodgorliklar bilan tanishib chiqishdi.

A.IMONQULOV,
yong'in-qutqaruv otryadi
smena boshlig'i, leytenant.

DILDAN SUHBAT



Yashnobod tumani FV bo'limi harbiy xizmatchilarining oilaviy ahvoli, yashash sharoitlari o'rganildi. Ularning ota-onalari hamda yaqinlari bilan suhbatlar olib borildi. Muammo va takliflari o'rganilib, aniqlangan muammolarning yechimini topish choralari ko'rildi.

B.SODIQOV,
Yashnobod tumani FV bo'limi boshlig'i
o'rinbosari, podpolkovnik.

TALAB VA IJRO

Kosonsoy tumani “M.A'zam”, “Gulobod” MFY hududlaridagi 340 ta aholi xonadonlarining yong'inga qarshi holati tekshirilib ularda 450 nafar fuqaro bilan favqulodda vaziyatlar va yong'inlarning oldini olish borasida tushuntirish ishlari olib borildi. Xonadon egalariga yo'riqnoma berilib, soyning belgilanmagan joylarida cho'milish taqiqlanadi mazmunidagi eslatmalar o'rnatildi. Bundan tashqari, 46-sonli umumta'lim maktabida zilzila vaqtda to'g'ri harakatlanish qoidalarini o'rgatishga mo'ljallangan o'quv-amaliy seminarlar tashkil etildi.

A.AHMATJANOV,
Kosonsoy tumani
FV bo'limi boshlig'i, podpolkovnik.
I.MELIBOYEV,
Namangan viloyati FVB axborot xizmati
yetakchi mutaxassisi.

QURILISHDA YONG'IN XAVFSIZLIGI

Qurilish jarayonida loyihada ko'zda tutilgan barcha yong'inga qarshi choralarining bajarilishi; yong'inga qarshi qoidalarga amal qilish hamda qurilayotgan va yordamchi obyektlarni yong'indan muhofaza qilish, qurilish va montaj ishlarining yong'indan xavfsiz tarzda bajarilishi; yong'in o'chirish vositalari mavjudligi va soz holda saqlanishi; qurilayotgan obyekt va qurilish maydonida yong'in yuz berganda odamlarni evakuatsiya qilish va qutqarish, moddiy boyliklarni himoya qilish ishlarini xavfsiz amalga

oshirish asosiy vazifalardan hisoblanadi.

Yong'in o'chirish texnikalarining o'tish yo'llarining kengligi 6 m.dan kam bo'lmasligi kerak. O'tish yo'lining umumiy kengligiga ushbu yo'lga tutash bo'lgan to'silmagan trotuarni qo'shish mumkin, bunda uning qoplamasining toifasi transport o'tish yo'lining qoplamasi toifasidan past bo'lmasligi kerak. Binoning baland qismining tashqi devorlaridan o'tish yo'llari chetigacha bo'lgan masofa 8-10 metrni tashkil qilishi lozim. Yong'in o'chirish texnikalari

o'tadigan yo'llarning burilish radiusi 18 m.dan kam bo'lmasligi zarur. Bosh berik yo'llar avtonarvon va avtoko'targich burilishiga imkon yaratish uchun diametri 16 m.dan kam bo'lmagan orolchalari mavjud burilish maydonlari bilan yakunlanishi zarur. Burilish maydonlaridan avtomobillar turargohi sifatida foydalanishga yo'l qo'yilmaydi.

S.TURSUNOV,
Yangihayot tumani
FV bo'limi
boshlig'i, podpolkovnik.

SARHISOB

Namangan viloyati Norin tumanida “Favqulodda vaziyatlardan muhofaza qilish va fuqaro muhofazasi oyligi” doirasida qator ishlar amalga oshirildi. Oyluk davomida 46 ta ijtimoiy soha obyektlari, 29 ta iqtisodiy obyektlar o'rganildi. Ovqatdan zaharlanish bo'yicha 16 marotaba profilaktik tadbirlar o'tkazilib, 61 kg. iste'molga yaroqsiz mahsulotlar sotuvdan chiqarildi. Toshqin suvlari va sel oqimlarini xavf-xatarsiz o'tkazib yuborishni ta'minlash, qor ko'chishi va yer ko'chkisi hodisalari xavfini kamaytirish bo'yicha Norin va Qoradaryo daryolarining o'zan va qirg'oq mintaqalari o'rganilib, dalolatnoma rasmiylashtirildi. “Norinkapa” va “Yangi Farg'ona” MFYlar binosida tuman hokimligi bilan hamkorlikda irrigatsiya bo'limi va jamoatchilik vakillaridan iborat 2 ta kuzatuv-nazorat postlari tashkil etildi. Postlarda tunu-kunlik navbatchilik tashkil etildi.

“Boburjon 5555”, “Norin medikal”, “Mehrigiyo shifo”, “Mangutrans servis”, “Al Hilol barakasi”, “Jo'raboy ota guzari”, “Shahidmozor fayzli taomlari”, “Paxta g'alla trans” MCHJlarida yong'inga qarshi tadbirlarni bajarilishi yuzasidan xabardor etish tartibida tekshiruvlar o'tkazildi. Shuningdek, tuman FVDT xizmatlari bilan hamkorlikda insonlar va chorva hayvonlari o'rtasidagi Qrim-Kongo gemorragik isitmasi kasalligiga qarshi profilaktik tadbirlar hamda maxsus-taktik o'quv mashg'uloti tashkil etildi.

B.MAMADALIYEV,
Norin tumani FV bo'limi boshlig'i
o'rinbosari, kapitan.

Respublika ishchi guruhi tomonidan Namangan viloyatidagi yer ko'chkisi va sel xavfi bor hududlar o'rganildi.

SHTABLAR FAOLIYATI

Jarayonda FVV mas'ul xodimi polkovnik Baxtiyor Abdurahimov, Ichki ishlar vazirligi mas'ul xodimi Ravshan Pirmullov, Xavfli geologik jarayonlarni kuzatish va ko'chki stansiyasi boshlig'i Muxtorjon Nishonovlar hamda daxldor tashkilotlar bilan birgalikda Chortoq tumani “Beshkapa”, Yangiqo'rg'on tumani “Gaiston”, Yangi Namangan tumani “Axsikent-1”, Davlatobod tumani “Nurobod” mahalla fuqarolar yig'inlaridagi ko'chki xavfi bor joylarni hozirgi kundagi holati o'rganildi.

Shuningdek, joylarda tashkil etilgan toshqinga qarshi tezkor shtabi faoliyati bilan tanishib, hududiy komissiyalar faoliyatini olib borishi yuzasidan aniq vazifalar belgilab berildi.

B.QOCHQAROV,
Namangan viloyati FVB xodimi, mayor.

FUQARO MUHOFAZASI KUNLARI

Qashqadaryo viloyatining Kasbi va Mirishkor tumanlarida o'tkazilgan qo'mondonlik-shtab o'quv mashg'ulotlariga FVDTga kiruvchi xizmatlar boshqaruv organlari hamda kuch va vositalari jalb etildi.

Shuningdek, o'quv mashqi doirasida bir qator o'quv nuqtalarida maxsus-taktik mashqlar hamda Fuqaro muhofasi kuni tadbirlari bo'lib o'tdi. Kasbi tumani maktabgacha va maktab ta'limi bo'limiga qarashli 8-DMTTda, 16-umumta'lim maktabida favqulodda vaziyatlarda birinchi tibbiy yordam ko'rsatildi. Ta'lim muassasalaridagi fuqarolarni xavfsiz hududlarga evakuatsiya qilish ishlari amalda sinab ko'rildi va tarbiyachilar, tarbiyalanayotgan bolalarga o'qituvchilar tomonidan ochiq darslar tashkil etilib, ularning fuqaro muhofazasi bo'yicha bilimlari oshirildi.

I.MUQIMOV,
Qashqadaryo viloyati
FVB HFXO'M o'qituvchisi.



TADBIR

Pop tumani FV bo'limi shaxsiy tarkibi hamda hamkor tashkilotlar ishtirokida “Favqulodda vaziyatlarning oldini olish va yong'inlar profilaktikasi” kuni munosabati bilan tumanning tog' va tog'oldi hududida profilaktik tadbirlar o'tkazildi.

Unda “Guliston” va “Yuqori Chodakboshi” mahallalaridagi fuqarolarga sel oqibatlari va xonadonlarda yong'in xavfsizligini ta'minlash bo'yicha ko'lamli tadbirlar o'tkazildi.

A.ABRAMOV,
Pop tumani FV bo'limi boshlig'i o'rinbosari,
kapitan.

M.MIRZANOROV,
bo'lim kichik inspektori, kichik serjant.

O'T O'CHIRGICHLAR

Yong'inlar o'z-o'zidan paydo bo'lmaydi, lekin har qanday yong'inning ham oldini olish mumkin. Yong'inga qarshi birlamchi kurashish vositasi o't o'chirgichlar hisoblanadi. Ular barcha transport vositalarida o'rnatilishi kerak. O't o'chirgichlarning turli xil bo'lishini esa hamma ham bilmaydi. Bundan tashqari, hammada ham ulardan qanday foydalanish to'g'risida ma'lumot mavjud emas. Transportlarda quvvat og'irligi 2-5 kg. bo'lgan karbonat angidridli va kukunli o't o'chirgichlar qo'llaniladi. Yonayotgan odamni karbonat angidridli o't o'chirgich bilan o'chirish qat'iy man etiladi.

Ushbu turdagi o't o'chirgichlarning kamchiliklari orasida o't o'chirish vositalarining uchuvchanligi, qurilmaning o't o'chiruvchi vositani yetkazib beruvchi elementlarini ehtiyotsizlik bilan ishlashda qo'llarning muzlashi xavfi, shuningdek, gaz bug'larining inson tanasiga salbiy ta'siri mavjud.

J.YAXSHIBAYEV,
Qoraqalpog'iston Respublikasi
FVB bo'lim boshlig'i, podpolkovnik.

Sh.DJUMANIYAZOV,
bo'lim bosh inspektori, mayor.

Маърифат соати

СОҒЛОМ ОИЛАДА СОҒЛОМ ТУРМУШ ТАРЗИ

Оила ҳамда жамият ўртасидаги ижтимоий муносабатлар икки томонлама алоқадорлик муносабатига эга. Ҳар бир оила жамият талаблари асосида фаолият кўрсатади. Соғлом, ўзини яхши ҳис этадиган, оптимист, руҳий жиҳатдан чидамли, ақлий ҳамда жисмоний иш қобилиятига эга, фаол яшайдиган одам касбий ва турмуш қийинчиликларини муносиб даражада енгади. Ушбу масалада матонатли, фидойи, сабр-тоқатли, баъзан тежамкор отанинг ҳам, меҳридарё, бағрикенг, юмшоқ кўнгил онанинг ҳам ўз ўрни бор.

Аҳоли ўртасида соғлом турмуш тарзини тарғиб қилиш, фуқароларнинг тиббий ва овқатланиш маданиятини юксалтириш – нафақат мамлакатимиз, балки бутун дунё ҳамжамияти олдида турган долзарб масалага айланган. Ушбу жараёнда санитария ва гигиена қоидалари, оқилонга овқатланиш тарзига риоя этишга доир профилактик тадбирларни ишлаб чиқиш, жисмоний фаолликни тарғиб этиш муҳим аҳамият касб этади. Жаҳон соғлиқни сақлаш ташкилоти маълумотларига кўра, ҳозирги кунда дунёда жуда кўп инсон темир моддаси, А витамини каби одам организми учун ўта зарур бўлган органик микроэлементларни талаб даражасида истеъмол қилмайди. Шу туфайли болалар ўсиш ва ривожланишда орқада қолаётганлиги кузатилаётган. Инсоннинг соғлиғини, унинг феъл-атворини белгилайдиган омил, унинг тановул қилган таомларидир.

Тарихий манбаларда қайд этилишича, қадим Шарқ табобатчилигида касалликлар биринчи навбатда овқат билан даволаб кўрилган. Овқатдан даво топилмаган ҳолатлардаги дори-дармон ва бошқа тиббий муолажалар буюрилган экан. Организмнинг барвақт қариши маҳсулотларни нотўғри истеъмол қилиш, овқатланиш қоидаларига амал қилмаслик натижасида юзага келиши аллақачон исботланган. Аср вабоси сифатида тилга олинаётган юрак хасталиклари – ишемик инсульт, миокард инфаркти, стенокардия, атеросклерозни келтириб чиқарувчи энг асосий сабаб сифатида нотўғри овқатланиш, меъёридан ортиқ овқатланиш кабилар тилга олинмоқда. Одамларнинг овқатланиш борасидаги билимсизлиги ҳайрон қоларли даражада. Истеъмол қилаётган таомларимиз тўлақонли, бахтли, шодон ва узоқ ҳаёт кечиримизни белгилайди. Тана учун зарур бўлган куч-қувват ва барча моддалар овқат орқали ўтади. Бизнинг еган овқатимиз билан сарф қилаётган энергиямиз орасида мутаносиблик йўқ. Қанча қувват сарфлашимизга қараб, шунча овқат тановул қилишимиз керак. Аммо кўпчилик инсонлар овқатларни нотўғри танлайди. Сабзавотлар, мевалар, сут-қатиқ маҳсулотлари ўрнига нон, ун ва кондитер маҳсулотлари, макарон, печенье, торт, ёғли овқатларга урғу беришади.

Америкалик машҳур кардиолог-жарроҳдан “Сиз қарийб 70 йилдан буён инсон юрагини ўрганасиз, узоқ умр кўришининг сири нимада?” – дея сўраганида, “агар инсон қовурма овқатлардан воз кечса, умрини 15–20

йилга узайтирган бўлар эди”, – деб жавоб берган экан. Шу ўринда, айтиш лозимки, инсонлар кўп ҳолатларда овқатни нотўғри тайёрлашади. Маҳсулотнинг тайёр бўлиш муддатига аҳамият қаратишмайди. Тўғри технология асосида тайёрланмаган овқатда фойдали моддалар ва витаминлар сақланиб қолмайди. Аксинча, тана кераксиз маҳсулотларни ҳазм қилиш учун ўзидан куч сарфлашга мажбур бўлади.

Қадим замонлардан инсоннинг истеъмол қилган овқати унинг кайфиятига, соғлиғига, ҳаётига, ҳатто тақдирига ҳам таъсир қилиши кузатилади. Соҳага оид замонавий тадқиқотлар шуни кўрсатадики, еган овқатимиз бизга нафақат муайян озиқ, калория беради, балки ДНК структурасини ва таркибини ўзгартиришга қодир ҳисобланади. Қадимги юнон мутафаккири Гиппократнинг “Бизнинг озиқ-овқатимиз – бизнинг дори-дармонимиз”, деган сўзларини эслаш кифоя. Тўғри ва оқилонга овқатланиш узоқ ва фаол умр гарови. Тўғри ва оқилонга овқатланиш инсон умрини узайтириб қолмай, саломатлигига ижобий таъсир этади, организмнинг нормал фаолият юритишига ёрдам беради. Айниқса, болаларнинг рациона зарур энергетик қийматга эга бўлиши керак, яъни овқат калорияси ҳаёт фаолияти учун сарфланган энергияга мувофиқ бўлиши зарур. Бола организми фойдали моддаларга танқислик сезмаслиги учун рационнинг хилма-хиллигига эътибор қаратиш лозим. Овқат рациона тўйимли бўлиши, озиқ-овқат маҳсулотлари таркибида оқсиллар, углеводлар, ёғлар, витаминлар, микроэлементлар ва минерал моддалар мавжуд бўлиши зарур. Рационга мева, сабзавот, сут, балиқ ва гўшт маҳсулотларини киритиш зарур. Бола организми осон кўникувчан бўлади. Шу боис, унинг бир хил овқатга ўрганиб қолишидан эҳтиёт бўлиш зарур. Болаларда кичик ёшдан таъм рецепторларида шўр, аччиқ ёки ширин овқатга майл пайдо бўлишининг олдини олиш лозим.

Дастурхонни тўғри безаш ҳам жуда муҳим роль ўйнайди. Болалар чиройли ва ўзига тортадиган нарсаларни ёқтиради. Шунинг учун дастурхон тузашга ҳам катта эътибор бериш лозим. Дастурхон дид билан безатилса ва овқат чиройли қилиб қўйилса, кўз қувониб қолмасдан, меъда шираси ҳам кўпроқ ажралади, ҳазм тизими овқатланишга тайёр туради. Оила даврасида бирга овқатланиш, маънавий тарбия, ўрнатилган жараёндир. Испаниялик педиатр Карлос Гонсалес “Менинг фарзандим ейишни хоҳламайди”, номли



бестселлериди овқатланиш вақтида мультфильмлар, кўшиқ, рақслар каби кўнгил очар ўйинларни томоша қилиш кўпол педагогик хато, деб атайди. Бунинг устига овқатларни “автоматик” равишда ейиш катта бўлганда стресслар ва семириб кетишнинг шаклланишига олиб келиши мумкин.

Биламизки, одамлар гиподинамия, оилавий можаролар, муаммолар, тушкунликка тушиш каби турли стресслар ичида яшайди. Бундай серташвиш ҳаёт витамин ва минерал моддаларга заруратни янада оширади. Ўтган даврларда саёҳатчилар ва денгизчилар экспедицияларда узоқ вақт мева ва сабзавотларсиз қолишганда, уларда оғир асоратларга олиб келувчи турли касалликлар пайдо бўлган. Кўкатлар, карам, хом сабзавотлар истеъмол қилишганида эса бу касалликларнинг олди олинган. Витаминлар рационнинг муҳим ва ўрнини босиб бўлмайдиган таркибий қисмидир. Улар организмнинг нормал ҳаёт фаолиятини таъминлаб туради, организмнинг ташқи кучларга таъсиротини кучайтиради, одамнинг меҳнат қобилиятини оширади. Сабзавотларни кўп қайнатиб юбориш, қовуриш ундаги витаминларни парчалаб юборади, натижада овқат ўзининг ширин таъмини ҳам, фойдали хусусиятларини ҳам йўқотади. Организмда бирор-бир витамин етишмаганда турли касалликлар келиб чиқади. Масалан, С витамини етишмаганда тишлар қимирлаб тушиб кетади, одамнинг инфекция касалликларга қаршилиги сусаяди. Углеводлар организмнинг асосий энергия манбаи. Асаб тизими, мускуллар, юрак, жигар ва бошқа органлар фаолиятида углеводлар муҳим роль ўйнайди. Углеводларга бўлган эҳтиёж организмнинг энергия сарфига боғлиқ. Организм қанча энергия сарф қилса, углеводларга бўлган талаб шунча ортади. Аммо углеводга бой маҳсулотлар – шакар, нон, хамир овқатлар, торт ва турли пишириқларни кўп истеъмол қилиш кексалар ва семизликка мойил одам-

ларда қандли диабет, юрак-томир хасталикларини келтириб чиқаради. Ҳомиладор аёллар рационда витаминлар етарли бўлиши керак, шунинг учун сабзавот ва меваларни кўпроқ ейиш зарур. Овқат яхши ҳазм бўладиган, енгил бўлиши керак, аччиқ, шўр, ёғли ва хамир овқатлардан тийилиш лозим. Кунига 3 ёки 4 маҳал овқатланиш мақсадга мувофиқ, чунки бунда ҳазм йўли бир маромда ишлайди ва овқат батамом қайта ишланади. Доим бир вақтда овқатланганда меъда шираси фаол ажралади. Овқатнинг нормал ҳазм бўлишида унинг иссиқ-совуқлиги ҳам роль ўйнайди. Овқат учун керакли идишларни яхши ювмаслик, маҳсулотларни нотўғри сақлаш, 2-3 кунлик овқатни истеъмол қилиш турли захарланишларга олиб келади. Тайёрланаётган овқат иложи борича оддий бўлиши керак, овқат учун ишлатилаётган маҳсулотларнинг сони қанча кам бўлса, шунча яхши. Мураккаб компонентли овқатлар жигарга, ошқозонга, ичакка ортиқча зўриқиш беради.

Ўзбекна турмуш тарзимизда, бола ота-онага қаттиқ гапирмаган, юзига тик қарамаган. Бу бизнинг қон-қонимизга сингиб кетган шарқона яшаш тарзимиздир. Бола қачон соғлом бўлади? Қачонки, тарбия бераётган она маънан, ақлан, жисмонан соғлом бўлса, ота ҳар томонлама етук бўла оلسагина. Шундай экан, фарзандлар маънавий ҳамда жисмоний соғлом муҳитда вояга етишларига катталар замин яратиши, ўзини ким эканлигини кўрсатадиган ва энг асосийси жамиятга фойда келтирадиган фарзандлар тарбиясини ўйлаши лозим. Соғлом авлод – миллат, юрт келажаги, буюк истиқболни эса баркамол, етук, маънан соғлом фарзандларгина қура олади. Зеро, жаннатмакон юртга баркамол, етук инсонларгина ярашади. Фарзандлари соғлом юрт эса, тараққий этади, юксалади ва ҳеч қачон, ҳеч кимдан кам бўлмайди.

Анвар ҚОБИЛОВ
тайёрлади.

Сув тошқинлари:

РАҚАМЛАР ВА ТАҲЛИЛЛАР

Ҳар йили дунёнинг турли ҳудудларида сув тошқинлари рўй бериб туради. Бироқ, бу йилги тошқинларнинг аввалгилардан катта фарқи бор: аксарият ҳудудлардаги табиий офатлар об-ҳаво кузатувлари тарихида мисли кўрилмаган даражада бўлди. Хусусан, Қозоғистондаги сув тошқинлари охириги 80 йил, БААда 75 йил, Хитойнинг Гуандун провинциясида 50 йил ичидаги энг катта талафотлиларидан бўлди.

Биргина Дубай шаҳрида ўртача йиллик ёгингарчилик меъёри 97 мм., апрель ойида эса бор-йўғи 8 мм.ни ташкил этади. Бироқ, 16 апрель куни ҳудудда 24 соат ичида йиллик меъёрдан 2 баробар кўп – 250 мм.га яқин ёмғир ёғди. Натижада шаҳарда ҳаёт бутунлай фалаж ҳолатга келиб қолди. Офат натижасида БАА ва Уммонда 20 киши ҳалок бўлди.

Технологик тараққиётда анча илгарилаб кетган Хитой ҳам кутилмаган офатдан эсанкираб қолгани аниқ. Рекорд даражадаги ёгингарчиликлар ту-

файли 127 миллион аҳоли истиқомат қилувчи провинциядан 82 минг киши вақтинча кўчирилди, 1,16 миллион киши электр таъминотисиз қолди. Камида 4 киши ҳалок бўлиб, 11 киши бедарак йўқолган, деб эълон қилинди.

ЙИЛИГА 50 МИЛЛИАРД
ДОЛЛАРЛИК ЗАРАР

БМТнинг иқлим ўзгариши бўйича Ҳукуматлараро мутахассислар гуруҳи маълумотларига кўра, иқлим исиши натижасида сув тошқинларининг жадаллиги ва такрорланишлар сони ортмоқда.

Британиянинг "Nature" илмий журналининг қайд этишича, сув тошқинлари дунё иқтисодиётига йилига 50 миллиард доллар зарар келтирмоқда. Қарийб 1,5 миллиард киши ёки дунё аҳолисининг 20 фоизи сув тошқинлари хавфи остида яшамоқда. Уларнинг аксарияти ўрта ёки паст даромадли мамлакатлар аҳолиси ҳисобланади.

Сув тошқини хавфи юқори бўлган

ҳудудлар харита бўйлаб нотекис тақсимланган. Бу борада энг муаммоли мамлакатлар Жанубий ва Шарқий Осиёда жойлашган бўлиб, Хитой, Бангладеш, Мянма, Таиланд ва Индонезия аҳолиси ҳисобланади.

Европа атроф-муҳит агентлиги мутахассислари эса ҳароратнинг ортиши ёгингарчиликлар миқдорининг ошишига сабаб бўлаётганини келтириб ўтади. Уларнинг фикрича, асримизда сув тошқинларининг частотаси 10 баробарга ортади. Мослашиш ва иссиқхона газларини камайтириш чоралари кўрилмаса, Европа Иттифоқидаги қирғоқ бўйида жойлашган 17 та йирик шаҳарда сув тошқинларидан кўриладиган йиллик ўртача зарар миқдорлари кескин ўсиши мумкин. Бугун бу шаҳарларда 102 минг киши сув тошқинларидан зарар кўраётган бўлса, зарур чораларсиз бу кўрсаткич 2050 йилда 740 минг кишига ортади.

Анвар ҚОБИЛОВ интернет материаллари асосида тайёрлади.

Сув омбори – тўғонлар ёрдамида сувни йиғиш ва сақлаш учун қуриладиган сунъий сув ҳавзаси. Сув омбори оқимни фасллар ва йиллар бўйича тартибга солади. Марказий Осиё ҳудудида сув омборлари асосан экинзорларни суғориш, энергетика ва сув таъминотини яхшилаш учун қурилади. Ўзбекистонда 4,3 млн.дан ортиқ ерда суғорма деҳқончилик қилиш, сув ресурсларидан гидроэнергетика ва балиқчилик мақсадларида янада кенгроқ фойдаланиш имкониятлари яратилади.

ҲАЁТ МАНБАИ

Сув хўжалиги мақсадларида барпо этиладиган сув омборининг тўлиқ ҳажми 2 қисмдан: фойдаланиб бўлмайдиган, фойдали ва резерв ҳажмдан иборат. Фойдаланиб бўлмайдиган ҳажм тўлиқ ҳажмнинг бир қисми бўлиб, нормал иш шароитларида оқимни тартибга солиш учун ишлатилмайди, унинг баландлиги фойдаланиб бўлмайдиган сатҳ ҳажми ҳосил қилади. Фойдали ҳажмга мос келадиган сув сатҳи нормал сатҳ дейилади. Нормал сатҳдан юқориси захира сув ҳажми ҳисобланади, сув ташлагич иншоотлари орқали тошқин сувларини ўтказиб юборишга хизмат қилади.

Мамлакатимизда сув хўжалиги давлат бошқаруви самарадорлигини ошириш ва ривожлантириш, сувдан тежамкорлик билан фойдаланиш, ерларнинг ҳолатини яхшилаш борасида изчил ислохотлар амалга оширилмоқда. Шу билан бирга, сув ресурсларини бошқариш ва улардан оқилона фойдаланиш, айниқса, сув омборлари ва бошқа йирик сув хўжалиги объектларининг хавфсизлигини таъминлашда жиддий камчилик ва муаммолар сақланиб қолмоқда. Сув хўжалиги объектларининг аксарият қисми 30-40 йилдан ортиқ хизмат қилаётганлиги ҳамда уларни лойиҳалашга экспертларни жалб қилиш, хорижий тажрибани жорий этиш каби масалаларга етарли эътибор қаратилмаётганлиги сабабли айрим сув хўжалигида техноген вазиятлар ва авариявий ҳолатлар кузатилмоқда.

Бу ўз навбатида, хавфсизлик чораларини кўришни, истиқболда белгиланган режа ва дастурларни амалга оширишни тақозо этади.

Дунё БЕРДИҚУЛОВА тайёрлади.

ЭНЕРГЕТИК ИЧИМЛИКЛАР ЗАРАРИ

Энергетик ичимликлар жиддий мунозараларга сабаб бўлади ва аслида уларни истеъмол қилиш билан боғлиқ маълум хавфлар ва мумкин бўлган зарарлар мавжуд. Асосий муаммолардан бири – кўпчилик энергетик ичимликлардаги кофеин миқдори юқорилигидир. Ҳаддан ташқари кўп кофеин уйқусизлик, асабийлашиш, юрак уриш тезлигининг ошиши ва ҳатто жиддий юрак муаммоларига олиб келиши мумкин.

Бундан ташқари, энергетик ичимликлар кўпинча таурин ва гуарана каби бошқа огоҳлантирувчи моддаларни ўз ичига олади, улар кофеин билан бирлашганда таъсирини кучайтиради. Натижада, энергетик ичимликларнинг катта дозаларини истеъмол қилиш асаб тизимини ҳаддан ташқари кўзгатиши, бош оғриғи каби салбий оқибатларга олиб келиши мумкин. Бундан ташқари, кўплаб энергетик ичимликлар таркибидаги шакарнинг юқори миқдори ҳам салбий оқибатларга олиб келади. Ҳаддан ташқари шакарни истеъмол қилиш семизлик, диабет ва тиш касалликлари каби турли хил соғлиқ муаммоларига олиб келиши мумкин. Баъзи энергетик ичимликлар таркибида гинкго билба ёки занжабил каби ўзига хос кўшимчалар мавжуд бўлиб, улар баъзи одамларда аллергик реакцияларни келтириб чиқариши мумкин. Шундай қилиб, соғлигингиз ва фаровонлигингизни сақлаб қолиш учун энергетик ичимликлар истеъмолини чеклаш муҳимдир.



Уларни тоза сув, мева шарбатлари ёки чой каби табиий ва соғлом муқобиллар билан алмаштириш яхшироқ ечим бўлиши мумкин. Тоза сув чанқоқни қондириш ва танадаги намликнинг оптимал даражасини сақлаб қолиш учун идеалдир. Шакар қўшилмаган янги мевалардан тайёрланган мева шарбатлари танани тўғри ишлаши учун зарур бўлган витаминлар ва минераллар билан таъминлайди. Консервантлар ва сунъий қўшимчаларни ўз ичига олган мева шарбатларидан сақланган. Чой, айниқса, кўк ёки ўсимлик чойи энергетик ичимликларга ажойиб алтернатив(муқобили) бўлиши мумкин. У табиий антиоксидантларни ўз ичига олади ва салбий таъсирларсиз энергияни ошириши мумкин. Энергетик ичимликлар билан боғлиқ юзага келиши мумкин бўлган муаммоларнинг олдини олиш учун танангизга эҳтиёт бўлиш ва унинг эҳтиёжларини тинглаш муҳимдир. Эсингизда бўлсин, соғлигингизга ғамхўрлик қилиш, тўғри овқат ва ичимликларни танлашдан бошланади.

Фахриддин РАҲИМОВ,
"Sihat-salomatlik"
журнали бош муҳаррир
ўринбосари.



Vaziyat

газетаси

Муассис:
Ўзбекистон
Республикаси
Фавқуллода
вазирлар
вазирлиги

Бош муҳаррир
Азамат СУЙОНОВ

Газета таҳририят
компьютерхонасида
саҳифаланди.

Газета ҳар ҳафтанинг
пайшанба куни чиқади.
Топшириш вақти – 15.00
Топширилди – 15.00

Навбатчи:
А.ҚОБИЛОВ

Таҳририятга юборилган
материаллар қайтарилмайди
ва изоҳ берилмайди.
Муаллифлар фикри таҳририят
нуқтаи назаридан фарқлиниши
мумкин.

Газетадан олинган материаллар
манбаси кўрсатилиши шарт.

Газета Ўзбекистон Матбуот ва
ахборот агентлигида 2007 йил
3 январда 0096-сон рақам
билан рўйхатга олинган
ISSN 2091-5292

Таҳририят манзили:
100084, Тошкент шаҳри,
Юнусобод тумани,
Ш.Рашидов кўчаси, 17-А уй.
Тел.: (71) 212-69-56
Телеграмм: (90) 016-87-67

Индекс:
якка обуначилар ва
ташқилотлар учун – 382

Газета "BUSINESS PRINT DESIGN"
босмахонасида босилди.
Манзил: Тошкент шаҳри,
Сўғалли ота кўчаси, 5-уй.
Буюртма №
Бичими: А3, ҳажми: 2,0 б.т.
Адади – 6000 нуска